

**1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.**

1. Quyidagi gapda qaysi kelishik qo‘srimchasini **qo‘llab bo‘lmaydi?**

Holbuki, bu dunyo... chinakam qayg‘urish... arziydigan bitta yo‘qotish bor, u ham bo‘lsa, iyomon... ayrilmoglikdir.

- A) o‘rin-payt kelishigi
- B) jo‘nalish kelishigi
- C) chiqish kelishigi
- D) tushum kelishigi

2. Qaysi javobda **tinish belgisi** bilan bog‘liq xatolik kuzatilgan?

- A) O‘zbekistonning go‘zal joylari, masalan, Samarqand, Buxoro ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.
- B) Bahavo hovli, yorug‘ va ozoda xonalar o‘zgacha muhtashamlik kasb etib turar edi.
- C) Gapingizni qarang, g‘ururga berilmang, g‘urur g‘urbatga solar do‘stim.
- D) Balki, sizda ham shunday hollar bo‘lgandir: tunda birdan uyg‘onib ketasiz.

3. Qaysi gapda qo‘srimcha qo‘llash bilan bog‘liq **uslubiy xatolik** mavjud?

- A) Bu haqida boshqa fikr bo‘magani uchun masalaga jiddiy yondashilmagan edi.
- B) Sershovqin ko‘chalarda odamlar daryoday oqadi, xalq shahar maydoni tomon shoshadi.
- C) Muxbirimizni xabar berishicha, yurtdoshlarimiz saylovda faol qatnashmoqda.
- D) Odamda tasavvur bor: xayoliga nimaningdir yoki kimningdir suratini keltira oladi.

4. Qaysi javobda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘zaro **shakldosh emas?**

- A) Bir yil ichida yigitning **bo‘yi** ancha o‘sdi.
Bog‘dagi gullarning bo‘yi kishiga huzur bag‘ishlaydi.
- B) Yolg‘onchining **rost** so‘zi ham yolg‘on bo‘lur.
*Qaddini **rost** tutgan biz tomonga yurib keldi.*
- C) Hech bo‘lмаганидан ko‘ra **kech** bo‘lgani yaxshi.
*Bir qoshiq qonidan **kech** bu bechoraning.*
- D) Raqib darvozasiga ketma-ket **to‘p** kiritildi.
*Ayol stoldagi bir **to‘p** xatni olib, ko‘z yugurtirdi.*

5. Qaysi javobdagagi gapda **uzoq** so‘zi “aloqasi, munosabati yo‘q” ma’nolarida qo‘llangan?

- A) Biz safarga otlangan yerda Elmurodning ham bir emas, ko‘pgina uzoq qarindosh-urug‘lari bordir.
- B) Bugunni emas, uzoqni ko‘rish kerak, kosoving uzun bo‘lsa, qo‘ling kuymaydi.
- C) Sidiqjonning ko‘zi daryoning u tomonida, uzoq ufqda miltillab turgan son-sanoqsiz chiroqlarga tushdi.
- D) Bundoq maslahatlarda mahkama sohibi, ammo ilm-fandan uzoq Ahmad Chalabiy ham bir chekkada esnab o‘tirardi.

6. Berilgan gapda ishtirok etgan **ko‘makchi** qanday mazmuniy munosabat ifodalagan?
Uquvsiz insonga qattiqqo‘llik bilan bilim yo hunar o‘rgatib bo‘lmaydi.

- A) vosita ma’nosи
- B) holat ma’nosи
- C) sabab ma’nosи
- D) birgalik ma’nosи





7. Imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
- A) mutola, muvafaqqiyot, liq-to‘la
B) tanavvul, jim-jitlik xushmuomala
C) hashorat, ikkovlon, ketma-ket
D) televideniye, matbaa, yuzma-yuz
8. Qaysi gapda har ikkala o‘rinda **-li** qo‘sishimchasi qo‘llash mumkin?
- A) Anvar aql..., tirishqoq juda harakat... bola.
B) Vazmin va chiroy... gapiradigan bu shahar... kishi ustozimiz edi.
C) Yo‘lning ikki tomoniga hosil... meva... daraxtlar ekilgan.
D) Bilib qo‘y, reja... ish hamisha samara... bo‘ladi.
9. Qaysi javobda **ichi qora** iborasi bilan antonimlik hosil qila oladigan ibora keltirilgan?
- A) og‘zi oziq
B) ko‘ng‘li ochiq
C) og‘zi qulog‘ida
D) ko‘ngli to‘q
10. Qaysi javobda **qo‘shma gap** berilmagan?
- A) Ota-oningga cheksiz xizmatda bo‘l, toki bu ish senga armon bo‘lmisin.
B) Chin do‘sit yurakdan so‘zlar, chunki u sening yomon bo‘lishingni aslo xohlamaydi.
C) Ukalarim bezovta bo‘lmisin deb, To‘ng‘ich botir to‘qayning bir chekkasiga qochdi.
D) U yangiliklarni o‘rganish uchun, atrofdagilarga o‘rgatish uchun shaharga otlandi.

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.

11. Gapdagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishi **to‘g‘ri** ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
Darhaqiqat, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan.
- A) mahorat bilan foydalangan, buyuk turkiy
B) darhaqiqat foydalangan, forsiy va arabiy
C) so‘zlardan mahorat bilan, boshqa tillardagi
D) bobomiz foydalangan, so‘zlardan foydalangan
12. *Ho‘kizning qorni ikki tomonga chambarak bo‘lib chiqqan, endi harakat qilolmay qiynalib yotardi.*
- Ushbu gapda **fonetik hodisa** asosida yozilgan so‘zlar qanday gap bo‘lagi vazifasida kelgan?
- 1) ega; 2) kesim; 3) aniqlovchi;
4) to‘ldiruvchi; 5) hol
- A) 2, 3, 5 B) 1, 3, 4, 5
C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 4
13. Qaysi gapdagi **-da** qo‘sishimchasing o‘rnida **orqali** yordamchi so‘zini qo‘llash mumkin?
- A) Avtobusda uzoq shahardan kelayotgan bir necha yo‘lovchi bor edi.
B) Tabiatda inson ko‘zi bilan ko‘rib bo‘lmaydigan jismlar ham bor.
C) Murabbiyim bilan telefonda suhbatlashgan edim.
D) Shoir qo‘lidagi qalamda uning asl kechinmalari ham jo bo‘lgan.





14. Qaysi gapda **sodda yasama holat ravishi** ishtirok etgan?
- A) Dushman bilan tortishayotganingizda ham mardlarcha fikr bildiring.
B) Ular asta-sekin ko'zdan olislab borishardi, biz esa ularni kuzatib qoldik.
C) Olmaxon yerdan ko'ra daraxtda yanada tezroq yuguradi.
D) Kemtik oy cho'qqilar orasidan mo'ralaydi, u esa oyga termilib zavqlanardi.
15. Qaysi gapda **vazifa shakliga** ko'ra o'zaro bir turga mansub bo'lgan fe'llar **ikki** o'rinda qatnashgan?
- A) Qo'ziboy ishga aralashuvini ham, chiqib ketishini ham bilmadi.
B) Orqa tomonda o'tirgan Dilbar o'zini tutolmay qiqirladi.
C) Kitobni o'qigach, anglagani shu bo'ldiki, hali juda ko'p shug'ullanishi kerak ekan.
D) Mehmonlar Matqovulning qistashiga qaramasdan ichkariga kirishmadi.
16. Quyidagi gapda qatnashgan **olmoshlar haqidagi to'g'ri hukmni** aniqlang.
"Uning kirdikorini men bilaman, undan men jirkanaman", – deb yursam, butun qishloq bilar ekan, butun qishloq jirkanar ekan.
- A) Olmoshlar faqat ikkinchi darajali bo'lak vazifasida qo'llangan.
B) Barcha olmoshlar bir xil ma'no guruhiga oid olmoshlar hisoblanadi.
C) Gap o'rnida qo'llangan va unga ishora qilgan olmosh qatnashgan.
D) Olmoshning tuzilishiga ko'ra faqat bir turi qatnashgan.
17. Imloviy jihatdan **to'g'ri** yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.
- A) qadrdon, murojatnama, asta-sekin
B) daromat, to'rttala, hazil-huzul
C) nadomat, suiiste'mol, zo'rma-zo'raki
D) taassurot, qobiliyat, shoshma-shoshar
18. Qaysi javobda **yasama so'z** bilan ifodalangan orttirma darajdagi sifat qatnashgan?
- A) Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardek guvullab jo'nashdi.
B) Tilimiz dag'alroq, lekin juda boy, rangli, ohori to'kilmagan ertak, doston va qo'shiq ko'p.
C) Chuqur va xayolchan ko'zlarida sirli va sehrli bir holat aks etadi.
D) Qizcha biror so'z demadi, lekin uning hamisha chaqnoq ko'zlar allaqanday ma'yuslandi.
19. Qaysi gapda **majhul va birgalik** nisbatidagi fe'llar qatnashgan?
- A) Ozoda gilamlar to'shalgan past-baland chorpoynalar ustida odamlar choy ichishib, ish yuzasidan maslahat qilishadi.
B) Botayotgan quyoshning horg'in nuri qorli tog' cho'qqisini, uning tepasida uvadaday osilib turgan bulutni bir lab qizartirdi-da, so'ndi.
C) Ko'zni quvnatadigan gulzor yonidagi yam-yashil daraxt tagiga qo'yilgan kattagina so'rida miriqib dam olish mumkin.
D) Bolalar uni yaxshi ko'rishib, unga yordam berishibdi.





20. Yordamchi so'z turkumlarining **barcha** turi qatnashgan javobni aniqlang.
- A) *Uning osongina yozilgandek ko'ringan misralarini o'qigan muxlislar yig'laydi, kuladi, hayajonga tushadi.*
- B) *U dastlabki ta'limdi ona shahrida oladi, yoshligidan aniq fanlarni o'rganadi, til va adabiyot bilan ham shug'ullanadi.*
- C) *Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimnikiga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi.*
- D) *Odamlar uning she'rlarini hayajon bilan o'qir, kitoblarini do'konlardan sotib olishga shoshilar edilar.*

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi.

21. Qaysi gaplarda **tire** o'zaro bir xil punktuatsion qoida asosida qo'yilgan?
1. *Men ana qaradim-mana qaradim – taomdan darak bo'lmadi.*
 2. *Botir bir marta o'ladi, qo'rqaq – ming marta.*
 3. *Bu narsa boshqalardan ham ko'ra o'z o'g'limg'a – senga ma'lum bo'lmasmidi?*
 4. *Homid uchun eng keyingi choradan boshqa iloj yo'q edi – cho'ntak kavlashka tutindi.*
 5. *Venera bog'chada, – dedi Zuhra va bundan ortiq gap so'rashini istamadi*
 6. *Unga o'xshagan arxeologlarning vazifasi – tabiat muhrini buzish.*
- A) 1, 5 B) 2, 5 C) 1, 4 D) 3, 6

22. Berilgan gap haqida **to'g'ri** hukmni aniqlang.
- Haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi.*
- A) O'rin holining fe'l kesimga tobelanishi yuz bergen
- B) Vositasiz va vositali to'ldiruvchilar fe'l kesimga tobelangan.
- C) Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilar vositali to'ldiruvchilarga tobelangan.
- D) Vositasiz to'diruvchi sifatlovchi aniqlovchiga tobelangan.
23. Berilgan gapda qo'llangan qo'shimchalar haqida **xato** hukmni aniqlang.
- Nafis chayqaladi bir tup na'matak Yuksakda shamolning belanchagida, Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul, Viqor-la o'shshaygan qoya labida.*
- A) Felning lug'aviy shakl yasovchisi qo'llangan.
- B) Otning sintaktik shakl yasovchi qo'shimchasi qo'llangan.
- C) Ot yasovchi qo'shimcha qo'llangan.
- D) Fe'l yasovchi qo'shimcha qo'llangan.
24. Jo'shadi buloqning kumush yoshlari, Ham mungli, ham shirin jildirashlari, Buralib ko'katlar ustidan chopar, Uzilgan marvarid yarqirashlari.
- Ushbu she'riy parchadagi fe'llarga oid **to'g'ri** fikrni aniqlang.
- A) Parchada ikkita yasama fe'l ishtirok etgan.
- B) Parchadagi fe'llar tarkibida nisbat qo'shimchasi mavjud emas.
- C) Parchadagi fe'llarning barchasi kesim vazifasida kelgan.
- D) Parchadagi yasama fe'llar turli turkumga oid so'zlardan hosil qilingan.





25. "O'yla o'zing, Gunoh kimda?
Kimdan oldim tarbiyat?
Sen uyg'otding yuragimda
Toj-u taxtga muhabbat."
Ushbu she'riy parchadagi olmoshlar haqidagi **to'g'ri** fikrni belgilang.
- A) Olmoshlarning ma'nosiga ko'ra ikki turi qatnashgan.
B) Vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan olmosh qatnashgan.
C) Ega vazifasini bajargan olmoshlar qatnashgan.
D) Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra ikki turi qatnashgan.
26. Yoshliging g'animat, bolam, o'sib, un,
Chiqarma behuda sado hamda un.
Ko'r, quyosh tig'ida va tegirmonda
Ezilib so'ng aziz bo'ldi bug'doy - un.
Ushbu parchadagi kesimlar haqida berilgan qaysi fikr **to'g'ri emas?**
- A) Fe'l kesimlar aniq va orttirma nisbatdagi fe'llar bilan ifodalangan.
B) Gapda kesimlarning ifodalanishiga ko'ra ikki turi qatnashgan.
C) Buyruq mayli ma'nosini ifodalagan fe'l kesimlar mavjud.
D) Kesimlarda faqat kelasi zamon ma'nosi ifodalangan.
27. Quyidagi gapda alohida ajratib ko'rsatilgan so'zga **tobelangan** bo'lakni aniqlang.
Juda salobatli, so'zlaganda ham qulqlarni qomatga keltirib so'zlaydigan kishi edi.
- A) salobatli B) qulqlarni
C) so'zlaganda D) qomatga keltirib
28. Berilgan gapda qo'llangan qo'shimchalar haqida **xato** hukmni aniqlang.
Tong ochar ko'zlarin erinib, sevinchdan yig'laydi qiyoqlar, chechaklar jilmayar sevinib, shamolda cho'milar giyohlar.
- A) Otning lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchasi qo'llangan.
B) Fe'lning lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchasi qo'llangan.
C) Sifat yasovchi qo'shimcha qo'llangan.
D) Ot va fe'l yasovchi qo'shimcha qo'llangan.
29. Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atagan tortig'idir, kitob insonning eng aziz do'sti, yaqini sanaladi.
Ushbu gapda qatnashgan aniqlovchilar haqida berilgan **to'g'ri** fikrni toping.
- A) Aniqlovchilarning kesimga tobelanishi kuzatiladi.
B) Qaratqich aniqlovchining egaga tobelanishi kuzatiladi.
C) Aniqlovchning maqsad holiga tobelanib kelishi kuzatiladi.
D) Aniqlovchining aniqlovchiga tobelanishi kuzatiladi.
30. Quyida gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi haqidagi **to'g'ri hukmni** aniqlang.
Odamlarning saodatga erishishida ilm qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, axloq ham insonning ma'naviy taraqqiyotida shunchalik muhimdir.
- A) Qismlari kelishik yordamida bog'langan so'z birikmasi ishtirok etmagan.
B) Qismlari kelishik va ko'makchilarsiz bog'langan so'z birikmasi qatnashgan.
C) Qismlari ko'makchi yordamida bog'langan so'z birikmasi qatnashgan.
D) So'zlarning o'zaro teng bog'lanishi (so'z qo'shilmasi) ishtirok etgan.

